

ALAM KONSEPTINING PRESUPPOZITSIYASI (“Anor” hikoyasi misolida)

Ilmiy rahbar : f.f.n, dotsent U. E. Rahimov

Mo‘tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Filologiya fakulteti II bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola pragmalingvistikaning asosiy birligi bo‘lmish presuppozitsiya haqidagi shaxsiy qarashlar va Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasi misolida o‘rganilgan alam konseptining presuppozitsiyasini o‘rganishga qaratilgan. O‘zbek lingvistikasida konseptologiya ham pragmatika ham to‘liq tadqiq qilingancho yo‘q. Mazkur sohalarni ma‘lum bir ijodkor asarlari doirasida o‘rganish ijodkor xazinasiga ega bo‘lish bilan birga tadqiqot maydonini kichaytiradi va turli ilmiy chalkashliklarni oldini oladi.

Kalit so‘zlar: pragmalingvistika, til, nutqiy akt, presuppozitsiya, alam

KIRISH

Insoniyat paydo bo‘libdiki , munosabat paydo bo‘ldi. Insonlarda ong rivojlana borishi bilan aloqa-aralashuv vositalari-da yuksala bordi. Kishilik jamiyati taraqqiyotida imo-ishora yoki shunga o‘xshash hozirgi kunda tilga yordamchi sifatida qaraladigan birliklar vaqtinchalik foydalanilgan bo‘lsa ham yetakchilik mavqeyi tilda saqlanib qoldi. Oldingi davrlarda ham muloqot jarayonining asosiy maqsadi axborot uzatish va qabul qilish bo‘lganini aytadigan bo‘lsak, kun sayin lingvistika predmetida tilshunoslar izlanishlari va tadqiqotlari natijasida yangidan yangi sohalarni kashf etishga asos bo‘lyapti. Pragmalingvistika shular jumlasidandir.

Pragmalingvistika semiotikadan ajralib chiqqan yangi materik demakdirkim, bu fan obykti verbal va noverbal birliklarda ifodalangan mazmunni o‘ziga xos modallik belgilari orqali o‘rganishdan liborat. Ushbu fan tilga antroposentrik yondashuv natijasida paydo bo‘lgan konseptologiyaga singari yangi yo‘nalishlardan hisoblanadi. Fan doirasida qilinayotgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar sohani o‘rganish imkoniyatlarini ochib berish bilan birga ilmiy chalkashliknilar ham paydo qilyapti.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turli kommunikativ jarayonlarni farqlovchi narsa tanlangan ifoda va tasvir vositalari (kommunikativ material) va ifodalayotgan va tasvirlanayotgan mazmunning o‘ziga xosligi . Masalan , sovg‘a qilingan qizil atirgul va “Men seni sevaman” konstruksiyasi (tasvir va ifoda mutanosibligi) yoki qizil rangda chizilgan yurak va

“Men seni sevaman” gapi (ifoda va ifoda xosligi) mazmunan qanchalik yaqin bo‘lmasin ular ekspressiv jihatdan turlichalik kasb etadi. Muloqot aktlarini lisoniy tizim birliklari bajaradigan vazifalar nuqtai nazaridan tasniflash ehtiyoji shundan paydo bo‘lgan. Muloqot aktining maqsadi muloqot individlari o‘zaro bir-birini anglashga qaratilgan.

So‘z til tizimining asosiy va markaziy birligi hisoblanadi. Shuningdek, so‘z tilning ishoralar(ramzlar, belgilar) tizimida ham asosiy lisoniy birlikdir, sababi u ishora hamdir.

Har qanday ishoraning, shuningdek, so‘zning ham, o‘zaro munosabatdosh ifoda va mazmun plani kabi ikki tomoni bo‘ladi. So‘zning ifoda planiga qarashli tomonini leksema, mazmun planiga qarashli tomonini esa semema deyiladi: leksema so‘zning tashqi tomoni hisoblanib, u tovush va morfemalardan tarkib topadi; semema esa, uning ichki tomoni deb atalib, semalardan tashkil topadi. So‘z ma‘nosi- bu semalar yig‘indisidir. Masalan, «parta» so‘zi «maktab jihozi» «taxtadan yasalgan», «yozishni qulaylashtirish uchun ishlatiladigan» va h.k. semalardan tashkil topgan. So‘zning semalarini to‘liq anglash pragmalingvistikaning asosiy birliklaridan biri bo‘lgan presuppozitsiyani anglashda alohida ahamiyatga ega. Sema va sememalar haqida prof. Sh.Rahmatullayevning o‘tgan asrning 70-yillarida «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnalida maxsus maqolasi e‘lon qilingan. Bundan tashqari, I.Qo‘chqortoyev, M.Mirtojiev, H.Ne‘matov, R.Rasulov, A.Nurmonov singari professorlarning asarlarida ham bu haqda qimmatli ma‘lumotlar mavjud.

Pragmatika (pragmalingvistika) tilshunoslik fanining yangi bir nazariy va amaliy faoliyatiga asoslanadi. U insonning ijtimoiy rivojlanishi o‘zida aks ettiruvchi nutqiy jarayondir. O‘rganish obyekti nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta‘siri bilan aloqador masalalardir. Pragmatika grekcha “ pragmos” so‘zidan olingan bo‘lib, “ ish”, “harakat” ma‘nolarini anglatadi. Pragmatika lingvistik belgilarning nutqdagi funksional qo‘llanishini o‘rganadi. Pragmatika termini XX asrning 30-yillarida Ch.Morris ilmiy maydonga olib kirilgan, Ch. Pirs, U. Jems, Ch. Morris kabi taniqli olimlar pragmatikaga oid manbalar qoldirgan. Lingvistik pragmatika o‘zi kabi antroposentrik nazariyalar asosida paydo bo‘lgan bir qancha lingvistik yo‘nalishlar singari boshqa fanlar, shu jumladan falsafiy g‘oyalar ta‘sirida shakllana boshladi. Til birliklarining pragmatik tizimini o‘rganish o‘zbek tilshunosligida yigirmanchi asrning 80 - yillaridan boshlab o‘rganila doshlandi: N.Mahmudovning Presuppozitsiya va gap munosabatiga oid, A.Nurmonovning ko‘makchili konstruksiyalari presuppozitsiyasiga D.Lutfullayevaning O‘zbek tilidagi sodda gaplarda zidlangan uzvlar presuppozitsiya haqidagi ilmiy maqolalari; U.Rahimovning Yuklamalar presuppozitsiyasiga doir, M.Hakimovning O‘zbek tilida matnning pragmatik talqiniga doir, Z. Tohirovning o‘zbek tilida pragmatik semalarning hosil bo‘lishi va ularda sub‘ektiv munosabatning yuzaga kelishi,

bog'lovchilarning so'z turkumlarining lisoniy tizimdagi o'rni va lingvopragmatik tadqiqiga doir doktorlik dissertatsiyalari shular jumlasidandir.

ASOSIY QISM

Til-ijtimoiy hodisa ekanligi qayta va qayta o'z isbotini topmoqda. Nutqiy akt birliklari - axborot uzatuvchi va qabul qiluvchi. Nutqiy akt asosan til bilan bog'liq bo'lsa-da, istisno hollarda ishoraviy shaklda ham amalga oshishi mumkin(imkoniyati cheklangan insonlar so'zlashuv jarayoni). Nutqiy jarayonda muloqot ishtirokchilari faqat axborot almashinib qolmay, nutq sohibining qolgan ishtirokchilarga ta'sir o'tkazishi, ishora qilishi, biron bir voqelikka erishishi, o'z munosabatini aks ettirishi mumkin. Bunday birliklarga yana bir necha vazifa yuklanadi, ular pragmatik tus oladi. Biz tadqiqotlarimiz mobaynida Abdulla Qahhorning ijodini atroflicha va keng aspektda o'rganish alohida ahamiyati qaratyapmiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek o'zbek lingvistikasida konseptologiya ham pragmatika ham to'liq tadqiq qilingancha yo'q. Mazkur sohalarni ma'lum bir ijodkor asarlari doirasida o'rganish ijodkor xazinasiga ega bo'lish bilan birga tadqiqot maydonini kichaytiradi va turli ilmiy chalkashliklarni oldini oladi.

Presuppozitsiya gapning ichki ko'rinishi, u til birligining bevosita holatida berilmagan semantik pozitsiya. Presuppozitsiya ixsham shakl orqali ko'p ma'lumot tavsiya qiladi, ular gap semasining variantlari. Shunday qilib gaplarda semantik sintaktik assimetriya paydo bo'ladi. Presuppozitsiya orqali nutq ishtirokchilari voqelik haqidagi qo'shimcha yashirin ma'lumotni anglab yetishadi. Bu ma'lumot ba'zan gapda aks etgan propozitsiyaga zid xarakterda bo'lsa, ba'zan ushbu propozitsiyani semantik to'ldiradi.

U.Rahimov presuppozitsiyani "Tagma'no va presuppozitsiya" maqolasida uni: "gapda ishtirok etayotgan bo'laklar orqali ifodalangan ma'no emas, balki zohiriy ma'no ostidagi qo'shimcha - botiniy ma'no", - deb hisoblaydi. So'zlovchi obyektiv voqelik haqidagi aniq axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlaganda presuppozitsiyaga yo'l ochiladi. U har bir tilning ichki shakli sifatida tilda ifodalash, tasvirlashning o'ziga xos xususiyatidir. Presuppozitsion ma'noni nutqiy vaziyatda til o'rganuvchidan ko'ra milliy xalq vakillari foydalanish darajasi yuqori, bunga sabab esa lingvomadaniyat. . Gapning semantik qurilishi presuppozitsiya uchun poydevor ekanligini hech kim inkor etmaydi.

Aziz o'quvchi quyidagi tahlil materiallarini asl manbaga solishtirma(konteksual) holda o'qish siz uchun tushunish imkoniyatini oshiradi.

Bu yer yutgur qanday balo ekan!...[9] Kontekst doirasida qahramon farzandi tug'ilmayloq uni qiynab yuborgani, dashnom eshitishga majbur qilgani alam qilgani ma'lum. Tug'ilajak bolaning hozirdanoq ko'rsatayotgan mashmashalari alam ta'sirida uni baloga mengzashi, yer yutgur deb qarg'ashiga olib kelgan. Yer yutgur

birikmasining presuppozitsiyasi - inson o'lganda uni yerga ko'mishlari. Qarg'ishning tagma'nosi qarg'ish qaratilgan obyektga o'lim tilash bilan xarakterlanadi.

Odamlardek gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong'i bo'lsam-chi [9]! Gap presuppozitsiyasi shunday: obraz oddiy hamma boshqorong'i bo'ladigan narsalarga boshqorong'i bo'lmagan; u boshqorong'i bo'lgan narsa topish ham, undan kechish ham amrimahol (alam konseptining paydo bo'lish nuqtasi). Tahlildan kelib chiqadiki inson ikki tanlovni biridan kechishi yoki har ikkisinin ham epini qila olmasligi unda ushbu konseptni paydo qiladi.

Xotin ovqatga unnadi, erining "boshqorong'i bo'l, evida bo'l-da", degani unga juda alam qildi, xo'rliqi keldi, o'pkasi to'ldi[9]. Gap presuppozitsiyalari: boshqorong'ilikning me'yordan oshganligi; holatga erning dashnomi alam uyg'otgani; alam insonning xo'rliqini qo'zib, yig'ini paydo qilganligi va boshqalar.

Ajab qildim, jigarlaring ezilib ketsin[9]!Konsept izohi: qilingan nomutanosib ishni boshqa birov uchun loyiq ko'rilishi, qadrsizlantirishga loyiq topishdan paydo bo'lgan alam hissi. Presuppozitsiya: bu kuningdan battar bo'l.

Kambag'alchilik o'lsin[9]! Presuppozitsiya: kambag'allik yo'q bo'lsin, toki buni ortidan insonlar qiynalmasin.

Ikkita anor uchun xotiningizni serpul odamga oshirgani uyaling[9]! Gapdan ikkita anorni olib bera olmay alam ta'sirida , o'z xotinini serpul odamga tegishini aytgani ma'lum.

XULOSA

Mazkur tadqiqotdan quyidagicha xulosa kelib chiqadi, yuqoridagilar kabi ayrim gaplarning konseptologik tahlili davr koloritini oddiy xalq uchun ikki anorni olishga qurbi yetmasligi va insonlar qalbida alam konseptining turli voqealar asosida keltirib chiqarayotganini ko'rsatib berish imkoniyatiga ega. Til birliklarining, konseptlarning jumladan tashqarida ochiq qo'llanmagan holatida tekshirish presuppozitsiya orqali to'ldiriladi. Abdulla Qahhorning asarlarida qo'llanilgan alam konseptining presuppozitsiyasi obraz ruhiy holatini lingistik vositalar yordamida ochib berilgan va ular orqali axborotning yashirin pragmalingsvistik nuqtayi nazardan aks ettirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахманова О., Магидова И.М. Прагматическая лингвистика, прагмалингвистика и лингвистическая прагматика// Вопросы языкознания. – М.1978.
2. TAGMA'NO VA PRESUPPOZITSIYA HODISASINING PRAGMATIK TADQIQI (Abdulla Qahhor asarlari misolida) NRQ To'Xtasinova, MTOQ Soibjonova - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
3. Mo'tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova. (2022). THE CONCEPT OF SHAME IN THE WORKS OF ABDULLAH WRATH (BASED ON ABDULLAH

QAHHOR'S STORY "THE WOMAN WHO DIDN'T EAT RAISINS").
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6635466>

4. ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUHABBAT KONSEPTI (“Muhabbat” qissasi misolida) SSOGL Mahmudjonov, MTOQ Soibjonova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022
5. Pragmatic Properties of Limited Vocabulary in Uzbek Language Andijan State University GU Pratova, MO Soibjonova Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 165-167, 2022
6. Gavharoy Israiljon Kyzi, Nurmatova Zaxro Nosirjon qizi, & Mo‘tabarxon Ozodbek qizi Soibjonova. (2022). LANGUAGE AND THOUGHT. COGNITIVE LINGUISTICS. CONCEPT. JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 8(7), 17–20. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/MBK3N>
7. Turobova Nargiza. (2022). ULUG‘BEK HAMDAM ASARLARIDA PRESUPPOZITSIYA HODISASI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 149–153. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/rae/article/view/795>